«O'ztransgaz» AJ faoliyatini 2024–2027 yillarga prognozlashtirishda ekonometrik modellar asosida tahlil	784
Sindorov Davlatbek Abdumajid o'g'li, Murodov Sardor Nurali o'g'li	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar.....	791
Mahmudov Otamurod Hoshimovich, Murtazova Sh.N.	
Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	795
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	
O'zbekiston chakana savdosi tizimi va uning rivojlanishi.....	806
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	



O'ZBEKISTON CHAKANA SAVDOSI TIZIMI VA UNING RIVOJLANISHI

Yaqubov Azizbek G'anibekovich

Urganch Ranch texnologiya universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası mudiri dotsent v.b.(PhD)

yaqubovazizbek2@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-2188-4562

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida chakana savdo tizimining shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanishi iqtisodiy-statistik ma'lumotlar asosida chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda chakana savdo bozorining strukturaviy o'zgarishlari, savdo ob'ektlarining soni, maydoni va ularning urban va qishloq hududlarida taqsimlanishi bo'yicha tafsilotlar berilgan. Maqolada chakana savdo tizimini boshqarishdagi mavjud muammolar, normativ-huquqiy bo'shliqlar va ularga zamonaviy yondashuvlar asosida yechimlar taklif etiladi. Xususan, Global chakana savdoni rivojlanish indeksi, SWOT tahlil metodologiyasi, "ROPO" va "Omnichannel" savdo modellari tahlil qilinib, xorijiy ilg'or tajribalar milliy sharoitga integratsiyalash ehtimollari baholangan. Tadqiqot natijalari asosida chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: chakana savdo, iqtisodiy tahlil, iste'mol bozori, savdo strategiyasi, SWOT tahlil, ROPO, omnichannel, zamonaviy savdo formati, chakana savdoni boshqarish.

Abstract: This scientific article presents a comprehensive analysis of the development of the retail trade system in the Republic of Uzbekistan, using economic-statistical methods. The study investigates structural transformations in the retail sector, including the expansion of the number and area of retail outlets and their distribution across urban and rural regions. The paper addresses existing management challenges, regulatory gaps, and suggests solutions based on modern strategies. Particular emphasis is placed on international experience through the Global Retail Development Index, SWOT analysis, and models such as ROPO and Omnichannel. Based on the findings, the paper offers scientific and practical recommendations for enhancing competitiveness and improving service quality in Uzbekistan's retail trade sector.

Key words: retail trade, economic analysis, consumer market, trade strategy, SWOT analysis, ROPO, omnichannel, modern retail formats, retail management.

Аннотация: В данной научной статье проведён комплексный анализ развития системы розничной торговли в Республике Узбекистан с применением экономико-статистических методов. В работе рассматриваются структурные изменения в розничной торговле, включая рост количества и площади торговых объектов, а также территориальное распределение между городскими и сельскими районами. Анализируются проблемы управления в отрасли, пробелы в законодательстве, и предлагаются пути их решения с учётом современных подходов. Особое внимание уделяется международному опыту через использование глобального индекса развития розничной торговли, метода SWOT-анализа и моделей ROPO и Omnichannel. На основании полученных данных выдвигаются научно-практические рекомендации по повышению конкурентоспособности и улучшению качества обслуживания в секторе розничной торговли.

Ключевые слова: розничная торговля, экономический анализ, потребительский рынок, стратегия торговли, SWOT-анализ, ROPO, омниканальность, современные форматы торговли, управление розничной торговлей.

KIRISH

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida savdo tizimi, xususan, chakana savdo tarmog'i mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, tovar va xizmatlar bilan uzluksiz ta'minlashda chakana savdo tizimining samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mamlakatimizda so'nggi yillarda chakana savdo infratuzilmasini modernizatsiyalash, xizmat sifatini oshirish va ilg'or savdo texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Chakana savdoning iqtisodiyotdagi o'rnini uning nafaqat yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi, balki ish o'rinlari yaratish, iste'molchilar talabiga javob beruvchi bozor mexanizmlarini shakllantirishdagi roli bilan ham belgilanadi. Aholi daromadlarining oshishi, iste'mol madaniyatining takomillashuvi va zamonaviy savdo shakllarining rivojlanishi chakana savdo tizimining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining rivojlanishi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar mazkur sohaning jadal sur'atlarda kengayib borayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chakana savdo tizimi bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda bu sohaning rivojlanishida iqtisodiy, institutsional va texnologik yondashuvlar tobora dolzarblik kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida savdo faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni isloh qilish, xususiyy treyding kompaniyalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash alohida vazifa sifatida belgilangan. Ushbu siyosiy asos soha rivoji uchun muhim nazariy va amaliy platforma bo'lib xizmat qiladi.

Akademiklar va iqtisodchi olimlar, xususan, G'.X. Saidov, Sh. Xamroyev, M. Juraev, Z. Yuldasheva va boshqa mualliflar o'z asarlarida chakana savdo korxonalarining transformatsiyasi, iste'mol bozori strukturasi, tovarlar aylanmasining o'sish dinamikasi kabi jihatlarni chuqur tahlil qilganlar. Bu asarlarda chakana savdoning iqtisodiy o'sishga ta'siri, ish bilan bandlikdagi roli va ichki bozorni to'ldirishdagi funksional xususiyatlari yoritilgan.

Xalqaro tajriba tahlil qilingan adabiyotlar orasida Kearney kompaniyasining "Global Retail Development Index" (2016-2019) yillarga oid hisobotlari muhim o'ringa ega. Ular global miqyosda chakana savdoning rivojlanish bosqichlari, investitsion jozibadorlik darajasi, ommaviy iste'mol tendensiyalari va zamonaviy savdo formatlarini tahlil qiladi. Ayniqsa, Xitoy, Hindiston, Malayziya va Indoneziya kabi mamlakatlar tajribasi bu borada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, BMT, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot bankining O'zbekistonda savdo tarmog'ining liberallashtirilishi, investitsion muhitning yaxshilanishi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan hisobotlari amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining yillik hisobotlari (2000–2021) asosida chakana tovar aylanmasining o'sishi, aholi jon boshiga xarajatlar va savdo ob'ektlarining soni bo'yicha real holat aniq ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanadi.

O'rganilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi sharoitda chakana savdoning innovatsion rivojlanishi uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu yondashuv ilmiy nazariyalar bilan amaliy ko'rsatkichlarni uzviy bog'lashni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda chakana savdo tizimining rivojlanish holatini baholashda iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash va dinamik usullar, hududiy differensial tahlil, xalqaro tajriba asosida interpretivistik va pozitivistik metodologik yondashuvlar, shuningdek, SWOT tahlil texnikasi hamda Kearney Global chakana savdoni rivojlanish indeksi mezonlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Xaridorgir mahsulotlar turlarini aniqlash, ularga bozor topish va sotish bilan xususiyy treyding kompaniyalari shug'ullanishi, buning uchun esa, savdo faoliyatini tartibga soladigan qonun loyihalari to'plamini ishlab chiqish lozim"ligi, Bu tashqi savdo bilan bir qatorda, ichki bozorga ham tegishli ekanligi 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan 4-eng muhim dasturiy va maqsadli vazifalar sifatida belgilab berilgan.¹

Mazkur vazifalar chakana savdoni korxonalarini iste'mol tovarlari bozoriga samarali integrasiyalashuni ta'minlash va uni iste'mol tovarlari bozorini tartibga solishdagi asosiy rolini belgilash asosida hal etish imkoni mavjud.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda jami chakana savdo aylanmasi xijmi 249 493,3 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2020-yilga nisbatan 112,0 foizga o'sgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000-2021-yillar davomida chakana savdo aylanmasining yillik o'sishi o'rtacha 110,8 foizni tashkil etgan. 2000-yilda jami chakana savdo shahobchalarining soni 53,9 mingni tashkil etgan bo'lsa, ularning soni 2021-yilda 171,6 mingtaga etgan (1-jadval).

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-25-01-2020>



1-jadval ma'lumotlardan ma'lum bo'lmoqdaki, O'zbekistonda fuqarolarga ijtimoiy himoyalash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi daromadlari, ish haqi va pensiyalar hamda aholi soni o'sib, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talab keskin o'zgarmoqda va o'z-o'zidan chakana savdo tovar aylanmasi yillar davomida muntazam oshmoqda.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida chakana savdoni rivojlanishi²

Yillar	Chakana tovar aylanmasi, mlrd. so'm	O'tgan yilgan nisbatan chakana tovar aylanmasi o'sishi, %	Korxonalar soni, ming birlik
2000	1 787,5	107,6	53,9
2001	2 699,9	109,6	54,7
2002	3 786,3	102,1	59,2
2003	4 289,7	104,2	54,1
2004	4 787,5	105,2	54,7
2005	5 577,4	105,1	57,6
2006	7 453,8	114,7	59,0
2007	9 574,6	115,5	62,2
2008	12 682,3	118,4	66,9
2009	16 874,6	119,3	75,8
2010	21 872,8	113,6	84,4
2011	28 539,0	117,1	94,8
2012	36 946,4	113,9	98,6
2013	46 863,0	113,3	98,2
2014	58 136,6	113,3	101,5
2015	71 184,1	115,3	107,2
2016	88 071,6	114,4	114,3
2017	105 229,9	101,9	119,2
2018	133 195,2	106,5	132,9
2019	166 094,4	109,1	151,8
2020	199 518,8	105,7	169,4
2021	249 493,3	112,0	171,6
2022	270 687,2	109,9	211,7
2023	330 448,1	110,5	222,5

Respublikada 2000-2021-yillar davomida jami 117 mingdan ziyod chakana savdo ob'ektlari ishga tushirilib, savdo maydonlari 2000 ming m² ga ko'paydi. Savdo ob'ektlarining umumiy sonidan 45 mingga yaqini qishloq joylarda (36 foizi) faoliyat yuritmoqda. Biroq qishloq joylarda faoliyat yuritayotgan savdo ob'ektlarining umumiy maydoni esa, jami savdo maydonlariga nisbatan 30 foizni tashkil etmoqda.

Respublikada yirik savdo ob'ektlarini qurish va ularni modernizatsiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, yillar davomida chakana savdo ob'ektlarining yiriklashuv darajasining pasayib borish holati saqlanib kelmoqda (2-jadval).

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi chakana savdo ob'ektlarining holati³

Yillar	Chakana savdo do'konlari soni, ming birlik	Chakana savdo maydonlari, ming m ²	Do'konlarga to'g'ri keluvchi o'rtacha chakana savdo maydoni, m ²
2000 y.	53,9	2592,4	48,1
2005 y.	57,6	3814,9	66,2
2010 y.	84,4	3965,1	47,0
2015 y.	107,2	4121,9	38,5
2020 y.	169,4	4214,2	24,9
2021 y.	171,6	4821,6	28,2
2022 y.	185 665	9 015,5	-
2023 y.	194 834	8 353,4	-

Respublikada 2000-yilda do'konlarga to'g'ri keluvchi o'rtacha chakana savdo maydoni 48,1 m² dan to'g'ri kelgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatki 38,5 m² ni tashkil etgan, 2020-yilgacha bo'lgan davrda bu xolat 24,9 m² pasayish tendensiyasi saqlanib kelayotgan bo'lsa, 2021-yildan boshlab 28,02 m² ma'lum miqdorda oshganligini ko'rish mumkin. Bu esa, savdo shahobchalarini ko'payishi va ularning maydalashib borishini keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat respublikada zamonaviy xizmat ko'rsatuvchi yirik savdo komplekslari (supermarketlar) tarmog'ini yetarlicha rivojlanmayotganligini anglatmoqda. Ayniqsa, bu holat qishloq joylarda yanada pastdir. Bu esa supermarketlar tarmog'i faqat shahar joylarda rivojlanayotganligini, qishloq aholisi esa an'anaviy savdo tarmoqlaridan foydalanib kelayotganligini anglatmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'lmoqdaki, mamlakatimizda ob'ektiv shakllangan tovarlar va xizmatlar bozori uchun ulgurji va chakana savdoni integratsiyalashgan faoliyatini ta'minlovchi qonuniy asos va boshqaruvga ega emas. Shuning uchun, respublikada "Savdo va xizmat ko'rsatish to'g'risida"gi yangi qonuni ishlab chiqish va qabul qilish "O'zbekiston savdo va xizmat ko'rsatish vazirligi"ning tashkil etish zarurligi⁴ mamlakatimizdagi shu sohaning yetakchi olimlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda chakana savdosini rivojlanish tendensiyalari bo'yicha qo'yilgan muammolar echimi jahon mamlakatlarining Global chakana savdoni rivojlanish indeksi asosida ushbu sohada eng rivojlangan mamlakatlarni belgilash va ularning asosiy strategik yo'nalishlarini aniqlash va tajribalardan foydalanish imkoniyatlari belgilashda foydalaniladi. Xorijiy davlatlarni chakana savdo tizimi jarayoni sohaviy faoliyatlarini tahlillari, uni samarali tashkil etish yo'nalishlariga kengroq izohlab berish maqsadida interpretivistik va pozitivistik yo'nalishlar qo'llanilib unga ko'ra, chakana savdoni samarali tashkil etishdagi tajribalardan foydalanish imkoniyatlari belgilashda foydalaniladi. Chakana savdoni rivojlanishi bo'yicha ilg'or davlatlarni asosiy yo'nalishlarini o'rganishda va baholashda Global chakana savdoni rivojlanish indeksi bo'yicha tanlangan mezonlar asos sifatida qabul qilinadi.

Pozitivistik tadqiqotda so'rovlar birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlarni to'plab olish va ularni statistik jihatdan tahlil etish hamda natijalarni umumiy to'plamga qo'shish uchun ishlatiladi. Pozitivistik yo'nalish uchun O'zbekistonda chakana savdoni rivojlanish tendensiyalari statistik ko'rsatkichlarni baholash asosida SWOT tahlil o'tkaziladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston chakana savdosini rivojlanishining mavjud holatini SWOT tahlili 4-jadvalda keltirildi.

³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

⁴ Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, Soliev Axmadjon, Fattaxov Adxamjon Azizovich, Yusupov Muxammadamin. Problemi ispolzovaniya teoretiko-metodologicheskix osnov marketinga v prosesse realizatsii strategiy deystviy. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya Strategiya deystviy Respubliki Uzbekistan: makroekonomicheskaya stabilnost, investitsionnaya aktivnost i perspektivi innovatsionnogo razvitiya" sbornik nauchnix materialov i statey. TGEU. 2018. St-286.

4-jadval. O'zbekistonda chakana savdoni rivojlanishi bo'yicha SWOT tahlili⁵

Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar
Ko'ptarmoqli chakana savdoni rivojlanishi; Ma'muriy islohotlar, hisobotlarni, shuningdek ruxsatnomalarni olish jarayonini soddalashtirish; Chakana savdo ob'ektlarini qurishni rag'batlantirish; Franchayzingni rivojlanishi Onlayn bozorni kengayib borishi; Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha davlatning faol siyosati	Yirik savdo markazlari va zamonaviy savdo shahobchalari o'rtasida iste'mol tovarlari narxidagi yuqori farqlar; Savdoni boshqarish bo'yicha qonunchilik tizimi; Import tovarlar bo'yicha cheklovlar sababli etarli darajada assortiment shakllanmaganligi; Chakana savdo ob'ektlari va undagi assortiment bo'yicha aholini xabardor qilish bo'yicha samarali kommunikasiya yo'qligi
Imkoniyatlar	Taxdidlar
Potensial iste'molchilar sonining ko'payishi. Yirik savdo va xizmat ko'rsatish bo'yicha yangi dasturlarni yaratish. Savdoni investisiyalash; Yangi qonunchilik tizimini yaratilishi; Savdoni soliq orqali tartibga solish shaklidan, iste'molchilar nazoratiga asoslangan shaklga o'tishi.	Respublika hududlarida chakana savdoning notekis rivojlanishi. Iste'molchilar talabining o'zgarishsiz qolishi. Kredit mablag'larining etishmasligi, yuqori foiz stavkalari. Korxonalarni mamlakat iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarga moslashish qobiliyatining pastligi

O'zbekiston chakana savdosida keyingi yillar davomidagi innovasion o'zgarishlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- doimiy mijozlarni ko'paytirish bo'yicha diskont kartalarini yirik savdo ob'ektlarida qo'llashni ko'payib borayotganligi;
- xizmat ko'rsatish usullari va mijozlarni jalb qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanayotganligi;
- savdo korxonalari tomonidan nooziq-ovqat tovarlari uchun muddatli to'lov shakllarini ko'payib borayotganligi;
- marketing sohasidagi yangiliklar, xususan, reklama-ijtimoiy tarmoqlarning yangi kanalidan faol foydalanish;
- QR-kod skaynerlash tizimlaridan foydalanishni kengayib borishi va.x.k.

Jahon va milliy bozorlarda globallashtirish va integratsiya jarayonlarining hamda raqobatning kuchayishi chakana savdo korxonalariga innovatsiyalarni faol joriy etishni rag'batlantirmoqda. O'rganilgan iqtisodchilarning fikrlarini umumlashtirish asosida istiqbolda chakana savdoning asosiy rivojlanish tendensiyasi iste'molchilarga yo'naltirilgan zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etishni taqozo etadi.

Respublika chakana savdo korxonalarida "Omnichannel" strategiyalaridan foydalanishning raqamli iqtisodiyot sharoitida nafaqat chakana savdo do'konlarida, balki onlayn do'konlarda ham savdo va mijozlarga xizmat ko'rsatish samarali strategik yondashuv sifatida qarash lozim. "Omnichannel" prinsipidan foydalangan holda, savdogar yanada kengroq tanlov taklif qilishi mumkin va tabiiy ravishda xaridorlarning sonini ko'paytiradi.

Chakana savdoda xorijiy mamlakatlar amaliyotda qo'llanilayotgan ROPO usulidan foydalanish ham yuqori samara beradi. Uning asosiy xususiyati tovarni onlayn o'rganish va oflayn sotib olishdir. Google tadqiqotlariga ko'ra, Evropa mamlakati internet do'konlardan dastlabki qidiruv amalga oshirilgandan keyin oflayn xaridlarni amalga oshirish bo'yicha xaridorlarning qariyb 37 foizni tashkil etadi. Jumladan, internet ta'sirini oflayn sotuvlar Germaniyada 61 foizni, Buyuk Britaniyada 36 foizni va Gollandiyada 8 foizni tashkil etadi. Respublikamizning yirik savdo tarmoqlari bo'lgan "korzinka" o'zining korzinka.uz elektron katalogini doimiy yangilab boruvchi tizimni yo'lga qo'ygan. "Mediapark" savdo tarmog'i onlayn savdo va "ROPO" tizimlaridan samarali foydalanmoqda. ROPO" tizimlaridan barcha chakana savdo tarmoqlarida yo'lga qo'yish orqali korxonalarda sotuvlar hajmini oshirish imkoniyatlari keng.

Savdo rivojlanishidagi yana bir muhim tendensiya "virtual sotuvchi" tizimidir. Jahon amaliyotida zamonaviy texnologiyalarga tayanib, an'anaviy savdodan voz kechgan tarmoq avtosalonlardir. Xalqaro amaliyotda ushbu trend avtomobillar raqamli texnologiyalar yordamida sotiladi. Chakana savdoda sun'iy intellekt asosida ishlovchi "virtual sotuvchi" lardan samarali foydalanishga asosiy e'tibor berilishi maqsadga muvofiq.

Raqobat muhitida chakana savdo korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi tendensiyalardan biri savdo do'konining shunday shakli bo'lib, u savdo maydonchasida "SHOP-IN-SHOP" (ingliz tilidan tarjima qilinganda "do'kondan do'konga" deb nomlanadigan savdo maydonchalarini tashkil etish shaklidir. Tadqiqotlarga ko'ra, ushbu yondashuv ma'lum bir joyda sotishni 30-200 foizga oshirishga

5 Muallif ishlanmasi



yordam beradi.⁶ Ushbu amaliyot ma'lum brendga tegishli bo'lgan tovarlar nomenklaturasini bir joyda sotishga yo'naltirilgan "brend-maydonchasi"ni tashkil etuvchi tizimdir.

SHOP-IN-SHOP formati deyarli har qanday biznes uchun foydalidir, chunki ushbu ko'p formatli echim savdoga yo'naltirilgan investisiya samaradorligini oshirish va barcha qatnashayotgan sheriklarning raqobatdoshligini oshirish imkonini beradi. Bu brendni tan olishga va unga bo'lgan sodiqlikni oshirishga yordam beradi. Bir vaqtning o'zida barcha kommunikasiya vositalari orqali iste'molchilarga ta'sir qilishning bir nechta usullaridan foydalanish imkonini beradi. Mijozlarga maksimal darajada e'tibor beradigan va mahsulotning barcha afzalliklari haqida ma'lumot beruvchi xodimlarning mavjudligini talab qiladi.

Xulosa qilganda, mamlakat aholisini zaruriy iste'mol tovarlari bilan ta'minlovchi soha hisoblangan chakana savdoni zamonaviy trendlaridan foydalanish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bilan birga iste'mol madaniyatini shakllantirishga va aholi turmush farovonligini ta'minlashga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda chakana savdo tizimi so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etayotgan bo'lsa-da, uning tarkibiy va hududiy jihatlari, boshqaruv mexanizmlari, infratuzilmasi va zamonaviy savdo formatlariga integratsiyalashish jarayoni hanuzgacha to'liq shakllanmagan. Qishloq joylarida savdo maydonlari yetishmasligi, xizmat sifati pastligi va normativ-huquqiy bazaning eskirgani tizimning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, ROPO, Omnichannel va Shop-in-Shop kabi strategiyalarni joriy etish chakana savdo samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, raqamli savdo vositalari, iste'molchiga yo'naltirilgan yondashuvlar va davlat tomonidan yaratilayotgan qulay muhit chakana savdo tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil, www.president.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-3722-son, 2006-yil 18 avgust — "Ulgurji va chakana savdoni liberallashtirish hamda uni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo ko'rsatkichlari" — 2000–2021-yillar statistik to'plami.
4. Kearney Global Retail Development Index Reports (2016–2019). URL: <https://www.kearney.com/global-retail-development-index>
5. G'.X. Saidov, M. Juraev. "Savdo tizimini isloh qilishning iqtisodiy asoslari" — T.: Iqtisodiyot, 2018.
6. Xamroyev Sh., Yuldasheva Z. "Bozor munosabatlari sharoitida chakana savdoning rivojlanish omillari" // Iqtisodiyot va ta'lim, 2020, №3.
7. Osiyo Taraqqiyot Banki. "O'zbekistonda savdo infratuzilmasini rivojlantirishga doir tahliliy hisobot", 2021.
8. Jahon banki. "O'zbekiston: Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida savdo sektori holati" — World Bank Group, 2020.
9. UNCTAD. "Digital Economy Report 2021: Cross-border e-commerce and retail markets".
10. Korzinka.uz — Rasmiy sayt: www.korzinka.uz
11. Mediapark.uz — Rasmiy sayt: www.mediapark.uz
12. OECD. "Retail Trade and Consumer Trends in Emerging Markets" — 2020.

⁶ Format shop-in-shop (magazin v magazine). Kak poluchit maksimum vigodi? Vadimdecor. Rejim dostupa: <http://vadimdecor.com> (data obrasheniya 20.10.2014).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>